XALQ DEPUTATLARI YAKKASAROY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 7 - yanvar II-76-2-14-207-K/23 Yakkasaroy tuman hokimligi

Yakkasaroy tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2023-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 61-bob, 429-moddasiga muvofiq, yer solig‘i bo‘yicha yuridik shaxslardan hamda 62-bob, 437-moddasiga muvofiq, yer solig‘i bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Yakkasaroy tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Malikovning “Yakkasaroy tumanida 2023-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari to‘g‘risida”gi axborotini tinglab, taklifini muhokama qilib, ushbu soliq yo‘nalishida faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrdagi 06/04-34/4103-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasi asosida, Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yakkasaroy tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i

A.Malikovning “Yakkasaroy tumanida 2023-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari to‘g‘risida”gi taklifi ma’qullansin.

2. Qarorga binoan 2023-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartiblar joriy etilsin:

a) Qishloq xo'jaliga mo'jallanmagan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar joy binolar joylashgan er uchaskalari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha miqdorda 1 ga uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

b) Qishloq xo'jaliga mo'jallanmagan jismoniy shaxslarning turar joy binolar joylashgan er uchaskalari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yakkasaroy tumani Davlat soliq inspeksiyasi **(A.Malikov)**ga:

Yakkasaroy tumani Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan byudjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda tumanni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borsin.

4. Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashining 2021-yil 16-dekabrdagi “Yakkasaroy tumanida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2022-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-50-56-14-207-K/21-sonli qarori 2023-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish

masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (J.Maxkamov), Yakkasaroy tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Sh.Taslimov), Yakkasaroy tumani Davlat soliq inspeksiyasi (A.Malikov), tumandagi tegishli okruglardan saylangan deputatlar va fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligini keng targ‘ib qilish, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Yakkasaroy tumani hokimligi va tuman Davlat soliq inspeksiyasi mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo‘yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni tuman hokimligi veb-sayti, ommaviy axborot vositalari, gazeta va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta’minlansin.

7. Mazkur qaror rasmiy elon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (J.Maxkamov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sayfutdinov. A.N.**

Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
II-76-2-14-207-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo'jaliga mo'jallanmagan yuridik va jismoniy shaxslarning noturar joy binolar joylashgan er uchaskalari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha miqdorda 1 ga uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	MFYlar nomi	Iqtisodiy zonasi	2023 yil uchun belgilangan soliq stavkasi (1 ga uchun)	Koeffitsiyenti (0,7 dan 3,0 gacha)	2023-yil uchun yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkasi (1 ga uchun)
1	X.Sulaymon MFY	2	193 000 000	1,3	250 900 000
2	Damariq MFY	3	149 000 000	1,3	193 700 000
		2	193 000 000	1,3	250 900 000
3	Bobur MFY	3	149 000 000	1,3	193 700 000
4	A.Qahhor MFY	2	193 000 000	1,3	250 900 000
		3	149 000 000	1,3	193 700 000
5	Y.Rajabiy MFY	1	242 000 000	1,3	314 600 000
		2	193 000 000	1,3	250 900 000
6	Bog‘saroy MFY	1	242 000 000	1,3	314 600 000
		2	193 000 000	1,3	250 900 000
7	Konstitutsiya MFY	1	242 000 000	1,3	314 600 000
		2	193 000 000	1,3	250 900 000
8	Tepa MFY	1	242 000 000	1,3	314 600 000
		2	193 000 000	1,3	250 900 000
9	Belariq MFY	2	193 000 000	1,3	250 900 000
10	Shohjahon MFY	2	193 000 000	1,3	250 900 000

11	**Rakat MFY**	2	**193 000 000**	1,3	**250 900 000**
12	**Rakatboshi MFY**	2	**193 000 000**	1,3	**250 900 000**
13	**Yakkasaroy MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
14	**Muqimiy MFY**	2	**193 000 000**	1,3	**250 900 000**
		3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
15	**Meros MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
		2	**193 000 000**	1,3	**250 900 000**
16	**To‘qimachi MFY**	1	**242 000 000**	1,3	**314 600 000**
		2	**193 000 000**	1,3	**250 900 000**
		3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
17	**Armug‘on MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
18	**Boshliq MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
19	**Qushbegi MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
20	**Dilbuloq MFY**	4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**
21	**Muhandislar MFY**	3	**149 000 000**	1,3	**193 700 000**
		4	**99 000 000**	1,3	**128 700 000**

Xalq deputatlari Yakkasaroy tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
II-76-2-14-207-K/23-son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo'jaliga mo'jallanmagan jismoniy shaxslarning turar joy binolar joylashgan er uchaskalari uchun olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	MFYlar nomi	Iqtisodiy zonasi	2023 yil uchun belgilangan soliq stavkasi (1 kv uchun)	Koeffitsiyenti (0,7 dan 3,0 gacha)	2023-yil uchun jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkasi (1 kv uchun)
1	X.Sulaymon MFY	2	1 194	1,12	1 337,30
2	Damariq MFY	2	1 194	1,12	1 337,30
		3	979	1,12	1 096,50
3	Bobur MFY	3	979	1,12	1 096,50
4	A.Qahhor MFY	3	979	1,12	1 096,50
		2	1 194	1,12	1 337,30
5	Y.Rajabiy MFY	1	1 408	1,12	1 577,00
		2	1 194	1,12	1 337,30
6	Bog‘saroy MFY	1	1 408	1,12	1 577,00
		2	1 194	1,12	1 337,30
7	Konstitutsiya MFY	1	1 408	1,12	1 577,00
		2	1 194	1,12	1 337,30
8	Tepa MFY	1	1 408	1,12	1 577,00
		2	1 194	1,12	1 337,30
9	Belariq MFY	2	1 194	1,12	1 337,30
10	Shohjahon MFY	2	1 194	1,12	1 337,30
11	Rakat MFY	2	1 194	1,12	1 337,30

12	**Rakatboshi MFY**	2	**1 194**	1,12	**1 337,30**
13	**Yakkasaroy MFY**	3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**
14	**Muqimiy MFY**	2	**1 194**	1,12	**1 337,30**
		3	**979**	1,12	**1 096,50**
15	**Meros MFY**	2	**1 194**	1,12	**1 337,30**
		3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**
16	**To‘qimachi MFY**	1	**1 408**	1,12	**1 577,00**
		2	**1 194**	1,12	**1 337,30**
		3	**979**	1,12	**1 096,50**
17	**Armug‘on MFY**	3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**
18	**Boshliq MFY**	3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**
19	**Qushbegi MFY**	3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**
20	**Dilbuloq MFY**	4	**770**	1,12	**862,4**
21	**Muhandislar MFY**	3	**979**	1,12	**1 096,50**
		4	**770**	1,12	**862,4**